



## BO‘LAJAK OFITSERLARDA KASBIY - BILISH KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

*Abdurahimova D.A.*

*O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi  
professori, p.f.d.,(DSc) professor*

**Tayanch sozlar:** kasbiy-bilish kompetensiyasi, mustaqil bilish, bilish faolligi, o‘z-o‘zini rivojlantirish, mustaqil ta’lim, metod, ta’lim, dars, bilim olish, shaxsiy xususiyat.

**Ключевые слова:** профессионально-когнитивная компетентность, независимое познание, познавательная активность, саморазвитие, независимое образование, метод, образование, урок, приобретение знаний, личностная черта.

**Key words:** professional and cognitive competence, independent cognition, cognitive activity, self-development, independent education, method, education, lesson, knowledge acquisition, personality trait.

Jahon mehnat bozori talablariga mos keladigan raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash oliy harbiy ta’lim tizimining eng asosiy funksional xususiyatlaridan biri sanalib, buni samarali amalga oshirilishi mazkur tizimda faoliyat olib borayotgan pedagoglarning kasbiy kompetensiyasiga bevosita uzviy bog‘liqdir. Chunki oliy harbiy ta’lim tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan pedagog-ustozlar qanchalik mahoratli, bilimdon, malakali va tajribali bo‘lsa, bir so‘z bilan aytganda “o‘z kasbining ustasi” bo‘lsagina, “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da belgilangan maqsadlarga erishish jarayoni shunchalik samarali kechishi ta’minlanadi.

“Oliy ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi”da belgilangan “oliy ta’lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo‘shadigan, mehnat bozorida o‘z o‘rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish”dek vazifani samarali amalga oshirish ham bevosita oliy harbiy ta’lim tizimida ta’lim olayotgan

bo'lajak ofitser kadrlarning kasbiy kompetensiyasining takomillashuviga bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Respublikamizda harbiy ta'lim tizimini takomillastirish orqali har tomonlama yetuk, barkamol, mustaqil fikrlashga qodir, vatanparvar, irodali, fidoiy va tashabbuskor harbiy kadrlarni tayyorlashga katta e'tibor berilayapti.

Hozirgi davrda harbiy ta'lim tizimida texnika va texnologiyalarning yangilanayotganligi, harbiy ilm va fanning jadal taraqqiyoti mutaxassis kadrlardan o'z bilimlarini mustaqil va muntazam ravishda chuqurlashtirib, yangilab, to'ldirib va kengaytirib borishni talab etadi.

Zamonaviy harbiy ta'lim tizimining eng asosiy vazifalaridan bo'lajak mutaxassislarning kasbiy mahoratini, o'z-o'zini rivojlantirish, o'z - o'zini rivojlantirishni ta'minlovchi kasbiy-bilish kompetensiyalarini shakllantirish hisoblanadi.

Kasbiy-bilish kompetensiyasi – bu, bilish faoliyatining ko'nikma va malakalar majmuasi: shaxsiy faoliyati muvaffaqiyati uchun rejalashtirish, tahlil qilish, refleksiya, o'z-o'zini baholash mexanizmlarini egallash; nostandart vaziyatlarda, muammolarni evristik metodlar bilan yechishda faoliyat metodlarini egallash; o'lchash malakalarini egallash, bilishning statistik va boshqa metodlaridan foydalanishdir [105].

Bo'lajak ofitserlarda kasbiy-bilish kompetensiyalarini shakllantirish funksiyalari quyidagilardan iborat:

Kursantlarning bilim olish faoliyatini mustaqil amalga oshirish, o'quv maqsadlarini qo'yish, ularga erishish uchun zaruriy vosita va metodlarni topish, ulardan foydalanish, jarayonni va faoliyat natijalarini nazorat qilish hamda baholash imkoniyatlarini ta'minlash;

Harbiy ta'limga tayyorgarligi asosida harbiy xizmatchi shaxsining garmonik rivojlanishi uchun va ularni o'zi amalga oshirish uchun sharoit yaratish;

har qanday predmet sohasida bilimlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirish, ko'nikma, malaka va kompetentligi shakllantirishni ta'minlash.

Ta'lim mazmuniga qo'yilayotgan zamonaviy talablar hamda yangilangan ta'lim mazmunining hayotda to'laqonli o'rnini topib, kutilgan natijalarni berishi uchun tajriba-sinovdan o'tkazilishi, uning natijalari asosida takomillashtirilishi, undan keyingina amaliyotga joriy etilishi maqsadga muvofiq.

Kasbiy-bilish kompetensiyalarini shakllantirishda bo'lajak ofitserlarga individual yondashish katta ahamiyatga ega. Uni amalga oshirishning vositalaridan biri bu, har bir kursantning shaxsiy xususiyat va imkoniyatlariga qarab ta'lim berishdir.



U bilim va ko'nikmalarning har bir kursant tomonidan mustahkam o'zlashtirilishini ta'minlashga, uning bilish kompetensiyasini hamda bilimni mustaqil topa bilishini shakllantirishga, bu bilimni turli amaliy masalalarni yechishda ijodiy ishlata bilishni o'rgatishga qaratilgan jarayoni o'quv faoliyatida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Kasbiy-bilish kompetensiyalarini shakllantirish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- kursantlarni topshiriqlar mazmuni bilan tanishtirish, uni bajarish bo'yicha tushuncha berish, kichik guruhni shakllantirish;
- tasavvur qilish: kursantning bilish haqidagi dastlabki tasavvurlarini shakllantirish;
- egallash: bilimlarni egallash hamda mustahkamlash jarayonini amalga oshirish;
- takomillashtirish: kursantlarning bilish kompetensiyalarini shakllantirishni amalga oshirish, bilimlarini chuqurlashtirish, kamchiliklarni bartaraf etish;
- yakuniy: bo'lajak ofitser kadrlarni mustakil ish bajarishga tayyorlash va bilimlarini shakllantirishni amalga oshirish.

Mashg'ulotlar jarayonida kursantlar bilish faoliyatini boshqarish bir necha omillarga bog'liq. Ularning eng asosiylaridan biri o'qituvchi kursantlarni o'z faniga qiziqitira olishidir. Bu yerda faqat qiziqishgina psixik jarayonlar va ularning idrok, diqqat, xotira, tafakkur va iroda kabi funksiyalariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'qituvchi tomonidan darsda va darsdan tashqari vaqtlarda kursantning mustaqil izlanishga va yangi bilimlarni o'z xohishi va qiziqishlari asosida o'rganishga, muammoli jarayonlarni o'zi hal etishga intiladigan nostandart vaziyatlarni yaratilishi kerak.

O'quv faoliyatida bir xil metodda axborotlarga asoslangan bilim berish yana boshqa bir metodda esa faqat harakatlardan iborat bilim berish jarayoni ham zerikishni, befarqlikni vujudga keltirishi mumkin.

Bo'lajak ofitserlarda fanni o'rganishga, o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishni shakllantirishda fanlarni o'rganishning zarurligi, inson hayotida katta ahamiyatga egaliga va o'z oldiga qo'ygan maqsadlarga erishish uchun bilim olish kerakligini bo'lajak ofitserlarga tushuntirish muhim jarayon hisoblanadi.

O'rganilayotgan mavzu oldingi o'rganilgan bilimlar bilan hamda kursantning kundalik faoliyati, yashash tarzi bilan aloqadorlikda bog'lab tushuntirilsa, bu jarayon shunchalik kursantlarga qiziqarliroq bo'ladi.

O'quv materialini bo'lajak ofitserlarni qiziqtiradigan narsalar bilan bog'lab tushuntirish ham, ularni mashg'ulotga qiziqtirishda muhim rol o'ynaydi.

Kursantlarni bajargan ishlarini tez-tez nazorat qilish bilan birga nafaqat kachiliklarini balki kursantning yutug'larini aytib rag'batlantirish ham bo'lajak ofitserlarning o'quv-bilish kompetensiyalarini oshiradi va fanga bo'lgan qiziqishini yanada uyg'otadi.

O'tilayotgan mashg'ulotlar jarayonida mustaqil ishlarning amalga oshirilishi kursantning erkinligini ta'minlaydi, ishchanlik qobiliyatini oshiradi, diqqatini jamlay olish qobiliyatini tarbiyalaydi, xulqini yaxshilaydi. Mustaqil ishlar jarayonida kursant mustaqil o'ylashga o'rganadi. Mustaqil o'ylashga o'rgangan kursantlar o'zlari bilimlarni mustaqil tarzda egallashi hamda muammolarni tahlil qila olishi mumkin.

Shuning uchun OHTMlarda bo'lajak ofitserlarning mustaqil fikrlash operatsiyalari (tahlil qilish, solishtirish, umumlashtirish, klassifikatsiyalash va b.q.)ni shakllantirish;

ularning bilish faoliyatiga qiziqishlarini;

tinglovchining maqsadga erishishda faolligi, mustaqilligi, tirishqoqligini stimullashtirish;

fanlar bo'yicha o'zlashtirishlarini muntazam nazorat qilish;

mashg'ulotlar jarayonida kursantlarning mustaqil ishlari elementlarini keng joriy etish bilan o'qitish metodlarini xilma-xilligi;

kursant va tinglovchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash shaklini takomillashtirish;

ularga individual yondashuvni amalga oshirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridir.

Shu bilan birga, OHTM kursanti kasbiy-bilish kompetensiyalarini shakllantirishga fundament bo'luvchi tarkibiy fikrlash operatsiyalari (ta'riflash, tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, xulosa chiqarish va b.q.) ni o'zlashtiradi:

ta'riflash - tushunchaning ahamiyatini aniqlaydi, asosini topadi, bu tushunchani boshqa tushunchalardan farqini ko'rsatadi, ta'riflash rejasini aytadi;

tahlil qilish - ob'ektni, tahlil qilishdan ko'zlangan maqsadni aniqlaydi, muhim qismlarga fikran ajratadi, bo'laklar orasidagi bog'lanishlarni ko'rsatadi, mantiqiy bog'lanishni aniqlaydi, solishtiradi;

taqqoslash – ularning o'shlarini topadi, asosiy belgilarini ajratib oladi, farqli belgilarini topadi;

umumlashtirish - maqsadni aniqlaydi, ob'ektning asosiylarini ajratib oladi, ularni taqqoslaydi, umumlashtirish natijasida xulosa chiqaradi;

xulosa chiqarish - hodisaning yuz berish sababini hamda uning o'ziga xosligi nimada ekanligini aniqlaydi, hodisaning yuz berishini tekshiradi: hodisa har doim takrorlanib turadimi yoki bir marta kuzatiladimi, hodisaning yuz berish sababi



qaysilar, berilgan hodisaning yuz berishiga sabab bo'lgan faktorlarni bir tizimga keltiradi.

Yuqoridagilarga tayangan hoda, OHTMda kursant va tinglovchilarning kasbiy-bilish kompetensiyalarini shakllantirish ularning mustaqil bilishlariga, bilish faolligining o'sishiga, o'z-o'zini rivojlantirishga, mustaqil ta'limga yordam beruvchi faoliyat (o'quv-boshqaruv, o'quv-axborot, o'quv-mantiqiy) metodlarini o'zlashtirishga imkon beradi.

Demak, OHTM kursant va tinglovchilarida faoliyatning barcha turlari – bilish doiralari takomillashishiga ta'sir ko'rsatadi, o'z yechimlariga nisbatan mustaqillik va tashabbuskorlik yuzaga keladi, o'z fikrini erkin bayon etish ko'nikmalari rivojlanadi.

#### Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni. - <https://lex.uz/docs/4545884>.
2. G'ulomov. X.R., Raimov K. va boshqalar. Ta'lim–tarbiya sifati va qirralari. -T.: «Fan va texnologiyalar». 2004. B. 9.
3. Taylaqov N.I. Uzluksiz ta'lim tizimi uchun informatikadan o'quv adabiyotlari yangi avlodini yaratishning ilmiy pedagogik asoslari. Monografiya. –T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat nashriyoti, 2005. – 160 b.
4. Tolipov O'., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – T.: «Fan», 2005. 206 b. 20.
5. Ernazarova G.O. The oretical basis of preparation of future teachers for professional pedagogical activity Academic Research in Educational Sciences, 3(1), 1057-1065. <https://doi.org/10.24412/2181-1385-2022-1-1057-1065>

#### РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada zamonaviy harbiy ta'lim jarayonida bo'lajak ofitserlarda kasbiy-bilish kompetensiyasini OHTMda kursantlarning kasbiy-bilish kompetensiyalarini shakllantirish, ularning harbiy bilim olish faoliyatini mustaqil amalga oshirish, bilish faolligining o'sishiga, o'z-o'zini rivojlantirishga, mustaqil ta'limga yordam beruvchi faoliyatni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari yoritilgan.

#### РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматриваются педагогические условия формирования профессионально-когнитивных компетенций у будущих офицеров в процессе современного военного образования, формирование профессионально-когнитивных компетенций курсантов в вузе, самостоятельная реализация их познавательной деятельности, рост познавательной активности, формирование видов деятельности, способствующих саморазвитию, независимое образование.

#### SUMMARY

This article discusses the pedagogical conditions for the formation of professional and cognitive competencies of future specialists in the process of modern education, the formation of professional and cognitive competencies of students at the university, the independent implementation of their cognitive activity, the growth of cognitive activity, the formation of activities that promote self-development, Independent education.